

FORTEPIANO DARSLARIDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH VA ULARNING SAMARADORLIGI

Kurbanova Mukammalxon Mamurovva

QDU Cholg'u ijrochiligi kafedrasida dotsent v.b.

Usmonova Sug'diyonaxon Eldorbek qizi

Cholg'u ijrochiligi (Fortepiano, organ) 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20228341>

Annotatsiya: Ushbu maqolada fortepiano ta'limida zamonaviy interaktiv pedagogik usullardan samarali foydalanish imkoniyatlari, afzalliklari tahlil qilingan. Darslarda qo'llaniladigan interaktiv mashqlar, guruhli ish shakllari, ijodiy tahlil va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish fortepiano ijrosini o'rganish jarayoniga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslangan holda yoritilgan.

Kalit so'zlar: fortepiano, interaktiv, pedagogik usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, improvizatsiya, fraza, mashq, kompozitor, ijodiy tahlil

Аннотация: В данной статье анализируются возможности и преимущества эффективного использования современных интерактивных педагогических методов в фортепианном образовании. Особое внимание уделяется интерактивным упражнениям, формам групповой работы, творческому анализу и использованию информационно-коммуникационных технологий на уроках, с точки зрения их положительного влияния на процесс обучения игре на фортепиано.

Ключевые слова: фортепиано, интерактивность, педагогические методы, информационно-коммуникационные технологии, импровизация, фраза, упражнение, композитор, творческий анализ

Abstract: This article analyzes the possibilities and advantages of effective use of modern interactive pedagogical methods in piano education. The interactive exercises, group work forms, creative analysis and the use of information and communication technologies used in lessons are highlighted, based on how they positively affect the process of learning piano performance.

Keywords: piano, interactive, pedagogical methods, information and communication technologies, improvisation, phrase, exercise, composer, creative analysis

Bugungi kunda jamiyatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash uchun davlarimiz tomonidan keng imkoniyat hamda sharoitlar yaratilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".

Har bir sohaga zamonaviy texnologiyalar kirib bormoqda. Ta'lim tizimi ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olgan holda bir qancha imkoniyatlar va innovatsiyalar asosida o'sib bormoqda. Bu esa ta'lim tizimida zamonaviy, interfaol metodlarni qo'llash hamda ta'lim sifatini oshirish orqali amalga oshirilmoqda.

Interfaol metodlar bu - jamoa bo'lib fikrlash degan ma'noni anglatadi. Ta'lim sohasida pedagogik ta'sir etish usullarining o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi - talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

"Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda."

Yosh avlodning dunyoqarashini, kreativ fikrlash qobiliyatini, bilim va saviyasini oshirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan bir qancha qaror va farmoyishlarda ham ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, yoshlarning bilim-salohiyatini oshirish, shuningdek, ta'lim tizimini yangi innovatsion texnologiyalar bilan boyitish yuzasidan chora-tadbirlar belgilab berilgan. Musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha ham o'quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish, milliy kuy-qo'shiqlarimizni o'rganishni yo'lga qo'yish uchun bir qator vazifalar ko'rsatib o'tilgan.

Musiqa san'atida fortepiano musiqasi alohida ahamiyatga ega. Forteplano o'zining keng ijroviy texnik hamda ifodaviy imkoniyatlari tufayli Yevropa hamda O'rta Osiyo ko'p ovozli musiqasida asosiy yakkanavoz va jo'rnavoz soz sifatida keng o'rin olgan. Forteplano — musiqa ijrochiligida muhim va universal cholg'u sifatida ta'lim-tarbiya jarayonida keng qo'llaniladi. Chunki cholg'u ijrochiligida ko'plab musiqa asboblari fortepiano jo'rligida kuy ijro etadi.

An'anaviy fortepiano darslari ko'p hollarda "ustoz-shogird" munosabatida individual tarzda o'tkaziladi. Ammo ta'limda innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi bu jarayonga interaktivlik, muloqot va ijodiy hamkorlik elementlarini olib kelmoqda. Bu esa fortepiano ijrosini nafaqat texnik jihatdan, balki emotsional, ta'biri va ijodiy tomondan ham boyitish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida interfaol usullar o'quvchilarning dars jarayonida faolligini va dars samaradorligini oshiradi. Interaktiv usullar o'quvchining diqqatini jonlantiradi, asarni chuqurroq tushunishiga yordam beradi, mustaqil mashq qilishiga rag'bat uyg'otadi, ijro davomida tanqidiy va tahlil qiluvchi ongini shakllantiradi.

Fortepiano darslarida qo'llaniladigan interaktiv usullar quyidagilar:

"Mashhur ijrodan o'rgan" (audio/video tahlil): O'quvchilar mashhur pianistlar (masalan, Vladimir Ashkenazi, Marta Argerix, Rixter, Lazerev) ijrosini tomosha qiladilar va tahlil qiladilar. Savollar orqali bahs yuritiladi:

"Improvizatsiya – mening versiyam": Asarning ma'lum bir qismiga asoslanib, o'quvchi o'z "improvizatsiya"sini yaratadi. Masalan, taqdim etilgan melodiyaga **МУСТАҚИЛ РАВИШДА** kompaniment qo'shadi, yoki uni kreativ ravishda o'zgartiradi. Bu usul ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

"Ikki pianist" — guruhli mashq: Ikki o'quvchi bir asarni duet shaklida o'rganadi. Bu orqali ularda ritm, temp, dinamikada kelishuv, o'zaro eshitish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

"Texnika sinovi" — muammoli nuqtalarni topish: O'qituvchi o'quvchidan asardagi qiyin joylarni tanlashni so'raydi va ularni qanday yengish haqida guruh bilan birga fikr yuritiladi. Bu o'z ustidan kuzatuvni kuchaytiradi.

"Musiqa so'zlashuvi": O'qituvchilar va o'quvchilar notadagi turli ifoda belgilari, dinamik belgilar va frazalarni "muzikal til" sifatida tahlil qilishadi. Masalan: "Bu fraza qaysi xarakterni bildiradi?", "Bu akkord qanday tuyg'u uyg'otadi?"

"Zamonaviy fortepiano darslari endi faqat akustik asbob bilan chegaralanmaydi. Raqamli vositalar qiziqish va samaradorlikni oshiruvchi omil sifatida xizmat qiladi: Synthesia, Flowkey, Yousician kabi interaktiv ilovalar orqali o'quvchilar notani vizual ko'rinishda o'rganadi. QR-kodli darsliklar yordamida har bir mashqga mos video-namunalar ulanadi. Virtual duet texnologiyasi - o'qituvchi va o'quvchi onlayn tarzda bir vaqtning o'zida chaladi. Mobil musiqiy viktorinalar - musiqiy savodxonlikni o'yin orqali mustahkamlash imkonini beradi."

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ham fortepiano darslarini mustaqil tarzda o'zlashtirish mumkin. Masalan, Synthesia, Piano Marvel, Flowkey kabi dasturlar orqali uy sharoitida mustaqil mashq qilish, turli internet saytlari orqali notalar, video-saboqlar va ijro tahlillaridan foydalanish mumkin hamda masofaviy tarzda interaktiv repetitsiyalar tashkil etish imkoniyati mavjud.

Fortepiano ta'limida interaktiv usullarni joriy etish o'quvchi faolligini oshiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, mustaqil mashq qilish madaniyatini shakllantiradi. Ushbu usullar orqali o'quvchi na faqat ijro texnikasini, balki musiqaning ma'no va xarakterini ham chuqur his etadi. Bu esa to'liq shakllangan ijrochi shaxsiyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa ta'limida yaratilayotgan bugungi kundagi har bir zamonaviy texnologiyalar yosh ijodkorlarga kelajakda o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Bu texnologiyalar ijodkorni tez va oson hamda muvaffaqiyatli ijod qilishida katta ahamiyatga egadir.

References:

1. D.T. Namozova. Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash. o'quv qo'llanma. - T.: "Barkamol fayz media", 2019
2. Rahimova, Sh. "Fortepiano ta'limida metodik yondashuvlar", Toshkent, 2022.
3. Abdurahmonov B. "Musiqa ta'limida innovatsion texnologiyalar", Samarqand, 2021
4. Islomova, M. Fortepiano darslarida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorlik mezonlari, "Science and Education" Scientific Journal, 25 October 2025, 6-son.
5. Qurbonova, M. "Cholg'u ijrochiligini o'zlashtirishda o'qituvchi va talabanning o'zaro munosabati." Oriental Art and Culture 4.3 (2023)
6. Sedix, T. Fortepiano, Toshkent, "Navro'z", 2019